

TA’LIM MUASSASALARIDA SURDOPEDAGOGIKA TOIFASIDAGI BOLALARGA TA’LIM-TARBIYA BERISH

Sayfiddinova Dilrabo Otabek qizi
Andijon davlat pedagogika instituti
Pedagogika yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada ta’lim muassasalarida surdopedagogika toifasidagi bolalar va ularga ta’lim-tarbiya berish shakllari haqida bayon etiladi va metodik tavsiyalar berib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: statistika, surdopedagogika, inkluziv ta’lim, tipopedagogika, oligofrenopedagogika, logopediya, total, integratsiya, detsibel, audiometrik.

Bugungi globallashuv jarayonida dunyo bo‘ylab nogiron bolalarni tug‘ilish statistikasi ortib bormoqda. Ilmiy kuzatishlar va pedagogik yondashuv asosida bunday bolalarni korreksiyalash va integtallashtirish ishlarini rivojlantirish zarurligi aniqlandi. O‘z navbatida nogironligi bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish va ularni ijtimoiylashtirish masalalari inkluziv hamda integratsion ta’limning tashkil topishi va rivojlanishiga bo‘lgan ehtiyojni yuzaga keltirdi. Bugungi kunda inkluziv ta’lim o‘z ichiga juda keng tarmoqni qamrab oldi: surdopedagogika, tiflopedagogika oligofrenopedagogika, logopediya, motorli tayanch harakat a‘zosida nuqsoni bo‘lgan bolalar ushbu tarmoqning katta qismini tashkil etadi.

Alohida ta’limga ehtiyoji bor bolalar guruhlarini katta qismini surdopedagogika toifasidagi ya’ni, eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar tashkil qiladi. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning bir qancha darajalari aniqlandi: Total (to‘liq) karlik, xuddi total ko‘zi ojizlik uchramagani kabi, juda kam uchraydigan hodisadir. Ko‘pincha karlikda baland nutqiy bo‘lmagan tovushlami, quloq suprasiga yaqin masofadagi ba’zi nutqiy tovushlami idrok etish darajasida bo‘lgan eshitish qoldiqlari saqlanib qoladi.

Audiometrik tekshiruv eshitishning 80 db. (detsibel - tovushni idrok etishni o‘lchashda qo‘llanuvchi o‘lchov birligi) dan yuqori darajada yo‘qolganini ko‘rsatadi. Zaif eshituvchilik eshitishning turg‘un pasayishi bo‘lib, unda ushbu eshitish qoldig‘i asosida nutqiy zaxirani minimal holatda mustaqil ravishda egallash, murojaat etilgan nutqni quloq suprasiga yaqin masofada idrok etish imkoniyati bo‘ladi. Audiometr tekshiruv eshitishning 80 db. dan kam bo‘lmagan pasayishini ko‘rsatadi. [2.189b]. O‘z navbatida kar va zaif eshituvchi bolalar ham turkumlarga bo‘linib, ularning har biri alohida pedagogik tashxis va yondashuvlarga asoslanadi.

Karlar: 1) tug‘ma yoki ilk yosh davrida eshitish qobiliyati yo‘qolgan va nutqni egallay olmagan kar bolalar; 2) eshitish qobiliyati kech yo‘qolib, nutqi saqlanib qolgan kar bolalar. [2.190b]. Total karlik bosqichidagi bolalarga alohida ta’lim muassasalari tashkil etilib, ko‘proq ko‘rgazmali qurollardan foydalangan holda dars jarayonlarini tashkil etish tavsiya etiladi.

Zaif eshituvchilar: 1) nutqida qisman chetga chiqishi (nutqining grammatik tizimida me’yordan chetga chiqishlar: qo‘shimchalami noto‘g‘ri qo‘llash yoki tushirib qoldirish, ba’zan talaffuz muammolari) bo‘lgan zaif eshituvchi bolalar; 2) chuqur nutqiy muammolarga ega bo‘lgan (lug‘at zaxirasi o‘ta chegaralangan, nutqi qisqa, noto‘liq so‘zlardan, grammatik tizimi so‘z-gapdan, bo‘g‘in-so‘zlar qatoridan iborat) zaif eshituvchi bolalar [2.190b].

Bunday bolalarning eshitish darajasi qisman bo‘lsada shakllangan bo‘lib, ularni sog‘lom bolalar qatoriga qo‘shib o‘qitishga hech qanday to‘siqlar kuzatilmaydi. Zaif eshituvchi bolalarni ijtimoiylashishi va ta’lim olishida alohida pedagogik yordam ko‘rsatish tavsiya etiladi. Masalan: ularga eshitishni tiklovchi apparat (OKA) lar yordamida eshitish qobiliyati holatini yaxshilash va nutqini shakllantirish maqsadida jismoniy-pedagogik

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

mashqlar o’tkazilishi tavsiya etiladi. Bundan tashqari, sinf xonasida ularga qulaylik yaratish hamda sifatli ta’lim olishlarini ta’minlash maqsadida ularni sinfning old qatoriga, o’qituvchining o’ng tomoniga o’tkazish pedagogik jihatdan samarali usul deb topilgan.

Nogironligi bo’lgan bolalarning psixikasi sog’lom bolalar psixikasidan tubdan farq qiladi. Risoladagidek eshitadigan bolaning psixik rivojlanish qonuniyatlarini o’rganilishi, eshitishda nuqsoni bo’lgan bolalar bilan korreksion-rivojlantiruvchi ishlarni samarali tashkil etish, ta’lim-tarbiya texnologiyalarni belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

L.S.Vigotskiyning “Eng yaqin rivojlanish zonalarini”, eshitish qobiliyatida nuqsoni bo’lgan bolalar psixik rivojlanishining umumiy qonuniyatlari mavjudligi haqidagi nazariyalari katta ahamiyatga egadir. L.S.Vigotskiy psixologik va pedagogik nuqtai nazardan eshitmaydigan bolalarga nisbatan xuddi normal eshitadigan bolalarga qaragandek munosabatda bo’lish kerakligini e’tirof etgan.

Eshitadigan bola hayotining dastlabki yetti yillik o’sish davrida psixik rivojlanishida kuzatilgan xususiyatlar, eshitishining buzilishi bilan bog’liq bo’lgan o’ziga xos xususiyatlarni aniqlashga yordam beradi[1.3b]. Eshitishda nuqsoni bo’lgan bolalar hamda sog’lom bolalarning psixikasi va ta’limiga alohida, ularning xususiyatlariga ko’ra yondashish pedagogik talab bo’lib kelmoqda.

Amaliy pedagogik metodikalarni qo’llash va psixologik treninglar va didaktik o’yinlar orqali bu toifadagi bolalarni o’qitish va ijtimoiylashtirish ancha samarali natijani beradi. Shuning bilan birgalikda, eshitish muammosi turli darajada bo’lgan yoshlarning eshitishini tiklashda turli-tuman apparat(OKA)lardan foydalanish orqali ularni jamiyat hayotiga ijtimoiylashtirishini jadallashtirish hamda umumta’lim muhitiga moslashtirish ancha samarali natijani beradi. Bundan tashqari pedagog-psixologlar tomonidan targ’ib etilayotgan amaliy-didaktik, psixologik tadqiqotlar ularning o’z dunyosidan chiqib atrofda gilar bilan integrallashish imkonini yaratmoqda.

Ilmiy kuzatish faktlarni ob’ektiv va aniq qayd etishni talab qiladi. Kuzatish metodi eshitish qobiliyati buzilgan bolalar ta’lim muassasalarida tashkil etilayotgan korreksion-tarbiyaviy ishlarni kuzatish maqsadida qo’llaniladi.

Pedagogik kuzatish jarayonida eshitishda nuqsoni bo’lgan bolalar faoliyatining xususiyatlari, ta’lim dasturida belgilangan bilim va malakalarni egallash samaradorligi, qo’llaniladigan metod va uslublar to’g’risidagi faktlarni to’plash, sistemalashtirish va tahlil qilish kabi vazifalar amalga oshiriladi. Surdopedagog va tarbiyachilar faoliyatini kuzatish, metod va usullarni tahlil qilish ham muhim ahamiyatga ega. Kuzatishlar natijalari aniq-ravshan bo’lishi uchun yozma bayonnomalar bilan birga audio va video yozuvlar hamda fototasvirlardan foydalaniladi.

Pedagogik tadqiqotlarda eksperiment o’quv yoki tarbiyaviy ishda amalga oshiriladigan ilmiy tarzda qo’yilgan tajriba katta o’rin tutadi[1.4b]. Amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida bolaning psixologik holati tahlil qilinib uning jamiyat hayotiga ijtimoiylashtirish va ta’lim-tarbiya olish mayli kuchaytiriladi.

Nogironligi bo’lgan bolalarning sog’lom bolalar ruhiy va jismoniy holatiga yaqinlashirish maqsadida korreksion-pedagogik ishlarni amalga oshirilishi ham samarali usul hisoblanadi.

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, eshitishda nuqsoni bo’lgan bolalarning psixologik va fiziologik holati sog’lom bolalarnikiga nisbatan ancha murakkabdir. Shuni hisobga olgan holda ularga ta’lim-tarbiya berish jarayonida insoniylik tuyg’usini ustun qo’yimlik va shuning bilan birgalikda pedagogik mahoratning yuqori bo’lmog’i zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

- 1.** X.J.KALBAEVA. U.Fayzieva A.Avloniy nomidagi XTXMOMI kaf. mud., prof. D.Nurkeldieva Nizomiy nomidagi TDPU dos., p.f.n. “MAKTABGACHA SURDOPEDAGOGIKA”(o‘quv qo‘llanma)[3,4b]
- 2.** Maxsus pedagogika (Darslik). -T.: «Fan va texnologiya», 2014[189,190b]